

**BOSHLANG`ICH SINFLARDA FILANDIYA TA`LIM
TIZIMI.**

Kasimova Dildora Bo`riboyevna

Andijon viloyati 31-maktab

Boshlangich sinfo `qituvchisi

Dadabolayeva Oqila Saidaliyevna

Andijon viloyati 31-maktab

Boshlangich sinfo `qituvchisi

Annotatsiya : Ushbu maqolada Fillandiya boshlang`ich ta`lim tizimi jarayoni , O`zbekitsonga Fillandiya ta`limdan qaysi tizimlarni olib kirsak yanada samarali bo`lishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so`zlar: o`qitish uslubi, dasturlar, tizim, maktab, quyi,individual,

Аннотация: В данной статье дается процесс финской системы начального образования, информация о том, какие системы из финского образования будут более эффективными для узбеков.

Ключевые слова: методика обучения, программы, система, школа, нижний, индивидуальный

Annotation: In this article, the process of Finnish primary education system, information about which systems from Finnish education will be more effective for Uzbeks is given.

Key words: teaching method, programs, system, school, lower, individual,

Prezidentimiz Yangi O`zbekiston barpo etish bo`yicha 2026 yilgacha mo`ljallagan ustivor vazifalarning dastlabki sifatida aynan ta`lim sohasini belgilab berdi. Maktablarning o`quv dasturlari, o`qitish uslubi , darsliklar mazmuni tubdan qayta ko`rib chiqilishi , yangilangan tizim, avvalo xorijiy ilg`or mutaxassislar ekspertizasidan o`tkazilib , keyin hayotga tatbiq etishi zarurligi ta`kidlandi. Anglashimiz kerakki , mamlakatimiz ta`lim tizimi yangi bosqichga , butunlay yangi davrga qadam qo`ymoqda.

“Daraxt ekish uchun eng qulay fursat – bundan 20 yil oldin edi va Hozir” yapon xalq maqoli.Nufuzli Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan uch yilda bir o`tkaziluvchi xalqaro tadqiqotlarga ko`ra, finlyandiyalik maktab o‘quvchilari

dunyodagi eng yuqori bilimlar darajasini namoyish etishadi. Ular shuningdek dunyodagi eng ko‘p kitob o‘quvchi bolalar hamdir. Bundan tashqari, finlyandiyalik maktab o‘quvchilari tabiiy fanlar bo‘yicha - dunyoda ikkinchi, matematika bo‘yicha esa beshinchi o‘rinni egallashadi. Biroq pedagogik jamiyatni quvontiradigani birgina bu natijalar emas. Shunisi ajablanarlik, dunyo miqyosida yuqori ko‘rsatkichlarni qayd etishlariga qaramay, finlyandiyalik maktab o‘quvchilari darslarga u qadar ko‘p vaqt ajratishmaydi.

Finlyandiyada o‘rtacha majburiy umumta’lim tizimi ikki bosqichli maktabni o‘z ichiga oladi:

- quyi (alakoulu), 1-6 sinf;
- yuqori (yläkoulu), 7-9 sinf.

Qo‘srimcha 10-sinfda o‘quvchilar o‘z baholarini yaxshilashlari mumkin. So‘ngra bolalar yo professional kollejga yo‘l olishadi, yoki litsey (lukio)da o‘qishni davom ettirishadi.

Finlyandiya ta'limi "o‘rta" bosqichining 7 tamoyili:

1. Tenglik

Mamlakatda na elita va na "bo‘shroq" maktablar bor. Finlyandiyadagi eng yirik maktabda 960 nafar o‘quvchi ta’lim oladi. Eng kichigida esa - 11 nafar. Barcha maktablar mutlaqo bir xil jihozlangan, birdek imkoniyatlarga ega va bir xil moliyalashtirilgan. Deyarli barcha maktablar - davlat maktablari bo‘lib, o‘nlab xususiy maktablar bor. Ularning ota-onalar qisman to‘lov kiritishlaridan tashqari yana bir farqi - o‘quvchilarga bo‘lgan talabning yuqoriligidagi. Qoidaga ko‘ra, bu o‘ziga xos "pedagogik" laboratoriylar: Montessori, Fren, Mortan i Valdorf maktablari. Ingliz, nemis va fransuz tillarida ta’lim beriluvchi o‘quv muassasalari ham xususiy hisoblanadi.

Finlyandiyada tenglik tamoyiliga rioya qilgan holda shved tilidagi parallel ta’lim tizimi mavjud - bog‘chalardan tortib to universitetlarga gacha. Saam xalqining manfaatlari ham unutilmagan, mamlakat shimolida ona tilida ta’lim olish mumkin.



Yaqin vaqtlargacha finlarga maktab tanlash taqiqlangan edi, bolalar shunchaki eng yaqin oradagi maktabga chiqishardi. Taqiq bekor qilindi, lekin ota-onalarning aksariyati baribir bolalarni yaqin oradagi ta'lim muassasasiga berishni ma'qul ko'rishmoqda, zero Finlyandiyada barcha maktablar birdek yaxshi.

2. Yig‘imlar

Mamlakatda ta'limdan boshqa yana quyidagilar bepul: tushliklar, ekskursiyalar, muzeylar va darsdan tashqari barcha tadbirdar; bolalarni uylariga tashuvchi transport; darsliklar, barcha o‘quv qurollari, kalkulyatorlar va hatto noutbuk-planshetlar. Ota-onalardan pul yig‘ish noqonuniy hisoblanadi.

3. Individuallik

. Har bir o‘quvchi uchun individual ta'lim va rivojlanish rejasi tuziladi. Bu reja butun o‘qish jarayoniga tegishli, biroq eng qizig‘i ta'lim jarayonida ikki noyob yo‘nalishning mavjudligi: bu "zaif" o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash (bizda buni repetitorlik deyishadi) va muayyan tilni, matematik ko‘nikmalarni tushunish, shuningdek ba’zi bolalarning asotsial xatti-harakatlari bilan bog‘liq qiyinchiliklarga duch kelgan o‘quvchilar ta'lim jarayoniga tuzatishlar kiritish. Tuzatish ta'limi kichik guruhlarda yoki individual ravishda o‘tkaziladi

4. Amaliyot

"Yo hayotga tayyorlaymiz, yoki — imtihonlarga. Biz birinchisini tanlaymiz", - deydi finlar . Shuning uchun Finlyandiyadagi maktablarda imtihonlar yo‘q. Nazorat ishlari va oraliq test sinovlari - o‘qituvchining qaroriga qarab belgilanadi. Umumta'lim maktabini tugallashda faqat birgina majburiy standart test o‘tkaziladi. Shunisi diqqatga sazovorki, o‘qituvchilar uning natijalari uchun alohida qayg‘urishmaydi, test natijalari uchun birovning oldida javob ham berishmaydi, bolalar ham unga maxsus tayyorgarlik ko‘rishmaydi: boriga baraka

5. Ishonch

Bolalarga bo‘lgan ishonch: darslarda o‘quvchi o‘zini qiziqtirgan ish bilan shug‘ullanishi mumkin. O‘qituvchi o‘z o‘quvchilarini qay usulda o‘qitishi nazorat

qilinmaydi. Mamlakatda yagona ta'lif dasturi amalda qo'llaniladi, biroq u faqat tavsiyalarni o'z ichiga olgan, o'qitish usullari esa maktab ishchisining tanloviga bog'liq. O'quvchilarga keladigan bo'lsak, ular ham o'ziga xos erkinlikka ega. Masalan, agar dars vaqtida o'quv filmi yoqilgan bo'lsa-yu o'quvchi kitob o'qishni ma'qul ko'rsa, unga hech kim tanbeh bera olmaydi. Maktab o'quvchisi o'zi uchun nima foydali ekanini tanlash huquqiga ega

6. Ko'ngillilik

O'qishni istagan odam o'qiydi. Pedagoglar o'quvchining e'tiborini qaratishga harakat qilishadi, lekin uning o'rgatilayotgan fanga qiziqishi yoki qobiliyati bo'lmasa, darrov "ikki" baho bilan "siylashmaydi", bolani kelgusida uncha murakkab bo'lмаган, amaliy jihatdan foydali bo'lgan kasbga yo'naltirishadi. Hamma ham samolyot ixtiro qilishi shart emas, avtobuslarni ham kimir boshqarishi lozimku.

7. Mustaqillik

Finlarning fikricha, maktab bolani eng asosiysi — mustaqil muvaffaqiyatli hayotga o'rgatishi kerak. Shu bois bu yerda fikr yuritish va bilim olishga o'rgatishadi. Maktablarda ma'lumotnomalardan foydalanish, qo'shimcha materialni izlab topish, barcha bilim manbalarini qo'llay olishni bilish ijobjiy qabul qilinadi. Bundan tashqari, pedagoglar o'quvchilarning mojarolariga aralashishmaydi. Asosiy sabab — o'quvchilarni muammolarni mustaqil hal qilishga o'rgatish.

O'quv jarayoni qachondan va qancha muddat o'qitiladi ?

Finlyandiyada o'quv yili avgustda boshlanadi, ya'ni 8 avgustdan 16 avgustgacha, yagona kun yo'q. O'quv yili may oyi oxirida yakunlanadi. Kuzgi yarim yillikda 3-4 kunlik ta'til bor, shuningdek Rojdestvo munosabati bilan 2 haftalik ta'til beriladi. Bahorgi yarim yillik fevral oyidagi "chang'i" ta'tilini ham o'z ichiga oladi, bunda fin oilalari, qoidaga ko'ra, oilaviy chang'i uchishga borishadi. Bundan tashqari, bahorgi yarim yillikda Pasxa ta'tili ham bor.

Ta'lif - besh kunlik, faqat kunduzgi smenada. Juma - qisqartirilgan kun.

Nima o'rganiladi?



1–2 sinf:

Ona (fin) tili va o‘qish, matematika, tabiat, din (e’tiqodiga qarab) yoki hayotiy tushunchalar (dinga qiziqmaydiganlar uchun), musiqa, tasviriy san’at, mehnat va jismoniy tarbiya. Bir darsda biryo‘la bir necha fan o‘tilishi mumkin.

3–6 sinflar:

Ingliz tili o‘rgatila boshlanadi. 4-sinfda - tanlov asosida yana bir chet tili: fransuz, shved, nemis yoki rus tillari. Qo‘srimcha fanlar kiritiladi (tanlov asosida, har bir mактабда har xil): klaviaturada ishlash tezligi, kompyuter bilimlari, daraxt bilan ishslash, xor ijrosi. Deyarli barcha maktablarda musiqiy asboblarda o‘ynashni o‘rgatishadi, bolalar 9 yillik ta’llim davomida barcha musiqiy asboblarida o‘ynashni mashq qilib ko‘rishadi.

Til o‘rgatish jarayonlarimizga kelsak . Bizning ta’limga ham Fillandiya ta’lim kabi jarayonlarni olib kirsak yanada samarali bo’ladi. O’quvchilarimizga avvalo o‘z ona tilida yozishni, o‘qish jarayonini chet tillarini qo’shmadan o‘gatsak bizda ham til o‘rganish jarayoni yanada osonlashadi. Finlyandiya ta’limda chet tili 4 sinfdan qo’shiladi . Samarasi ham yuqori . Bizning ta’lim jarayonida ham bu tizimni joriy qilsak, yuqori natijaga erishishimiz mumkin. Sababi ma’lum bir tilni chuqur o‘rganmasdan boshqa tillarni ham o’zlashtirish yuklamasi bizning ta’lim jarayonimizda til o‘rganish jarayonini sekinlashtirib yubormoqda. b. Oz ozdan qisman o‘rganish va samara kam.

Ona tili o‘qitish metodikasining metodologiyasi asosi borliqni bilish nazaryasidir.Bu fanning bosh vazifasi o’quvchilarning o’zbek tili lug’at boyligini to’liq o’zlashtirib olishlarini ta’minlaydi. Savod o‘rgatishda analitik-sintetik tovush metodi,og’zaki metod, ko’rgazmali metot kabi turli metotlar bilan ularga krativ yondashib o’quvchilarga o‘yinlar orqali qisqa muddatda samarali o‘z ona tilini o‘qitish uchun yangi darsliklardan foydalanishga ehtiyojimiz katta.

Baho kimga kerak ?

Mamlakatda 10 ballik tizim qabul qilingan, ammo 7-sinfgacha faqat so‘zda baho qo‘yiladi: o‘rtadan pastroq, qoniqarli, yaxshi, a’lo. 1-3 sinflarda umuman hech qanday ko‘rinishdagi baholar yo‘q.

Finlyandiya ta’limida o‘quvchining psixologiyasi va darslarni o’zlashtirish darajalariga alohida etibor qaratilgan . Quyi sinflaridagi jarayonlar bilan tanishib chiqish natijasida buni yaqol sezish mumkin. Talim jarayonida bolalar baholash orqali ularga chegara qoyib qoyishni oldini olish uchun ham bolalar quyi sinfda baholanmadni. Bu jarayon juda muhim . Bizning boshlangich ta’lim jarayonimizga aynan filyandiya talim tizimini kiritish samarali natijalar beradi. Ta’lim tizimimizda baholash mezonlari o’zgartiriladi. 1- 4 sinflar oralig’ida baholanmaslik jarayoni o‘quvchilarimiz ortasidagi oz bilimiga bolgan ishonchni tushib ketishini oldini oladi. Men yaxshi baho olmadim demak yaxshi bilim ega emasman deb psixologik tamonlama ozini sindirib qoyish darajasi kamayadi

Finlyandiyada barcha maktablar «Wilma» davlat elektron tizimiga ulangan, bu elektron maktab kundaligidek gap, har bir ota-onan unga kirish uchun shaxsiy kodga ega. Pedagoglar baho qo‘yib, davomatni belgilab, bolaning maktabdagi hayoti haqida xabar berib borishadi; shuningdek psixolog, ijtimoiy xizmatchi, "kelajak o‘qituvchisi", feldsher ham u yerda kerakli ma'lumotni qoldiradi.

Fin maktablarida baholar xavotir uyg‘otmaydi, ular faqat o‘quvchining o‘zi uchun kerak, qo‘yilgan maqsadga erishishda bolaga motivatsiya berish va o‘zini tekshirish uchun qo‘llaniladi. Baholar o‘qituvchi, maktab nufuziga ta’sir ko‘rsatmaydi va hech qanday ko‘rsatkichlarini buzmaydi.

Xulosa : Finlyandiya ta’lim jarayonini o‘rganish natijasida shuni xulosa qildim. Boshlangich ta’lim baxo qo‘yish jarayoni umumam yo’qligi. Bu samarali usul. O‘quvchini ragbatlantirish orqali o‘qitish lozim. Baholash jarayonida past baholanish orqali o‘quvchini qiziqishini osongina so‘ndirib qo‘yish mumkin. Ta’limda til o‘rgatish jarayoni. Barcha ta’limda yuqori reting turgan mamlakatlarni hech birida maktabni 1 sinifida qo‘srimcha chet tili o‘rgatilmas ekan. Bizning ta’lim

jarayonimizga eng zarur dolzat masala shu deb hisoblayman. Bolalar avvalo o'z ona tilimizni chuqur egalashi lozim. Til uchun oldin poydevor o'rnatish lozim. Poydevorni mustaxkam bo'limgan uy tez qulashi aniq. Finlyandiya ta'limida erkinlik va shaffof demakratlashgan tizim asosida ekanligini o'rganib chiqdim. Bu jarayon ham bolalarni ta'lim olish jarayoni har xil ishonchsizlik, qo'rquv , chegaralar ma'lum bir qolib asasida o'zi istamagan jarayonda o'tirishga o'zini majburlash kabi hislarni bolada shakllanib qo'lishini oldini olishga zamin yarata oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlonova R., Vohidova N., Rahmonqulova I., Pedagogika nazariyasi va tarixi (darslik) –T; „Fan va texnologiya” nashriyoti 2010-yil. 464-bet.
2. Mavlonova R.A. va boshqalar. Pedagogika (darslik). T: “O'qituvchi” nashriyoti. 2002 yil.
3. Mavlonova R., Arabova M., Pedagogik texnologiya (metodik qo'llanma) – T: 2008 yil. 47 bet.
4. Mavlonova R.A., Arabova M., Salohiddinova G'. Pedagogik texnologiya. – T: “Fan”nashriyoti. 2008 yil., 123 bet.
5. Goziev E.G. Oliy maktab psixologiyasi. ToshDU 1996 y.
6. Usmonova Q.S. Boshlangish ta`limda Filandiya ta`lim tizimini imkonoyatlari . Международный научный журнал № 4 (100), часть 2 «Научный импульс» Ноябрь, 2022./4. 899-903-b
7. Usmonova Q.S Development of Steam International Assessment Program in Primary Education. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE. 30th Apr 2023. 242-244 s

internet tarmogi bo'yicha veb-saytlar ro'yhati:

1. www.expert.psychology.ru
2. www.psycho.all.ru
3. www.psychology.net.ru
4. www.psy.piter.com

